

HUAWEI kompaniyasi vakillari data-sentrdan foydalanish bo'yicha master klass o'tkazib berdi

✘ Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutida HUAWEI kompaniyasi vakillari tomonidan institutimizning O'quv-uslubiy boshqarmasi, Axborot texnologiyalr kafedrası, Axborot texnologiyalr markazi, Axborot resurs markazi hamda Xalqaro hamkorlik bo'limi xodimlariga seminar trening o'tkazildi.

Seminar HUAWEI kompaniyasining Rossiya federatsiyasidagi vakili Malikov Nikita tomonidan zoom dasturi orqali olib borildi.

Dastlab kompaniyaning rivojlanish tarixiga qisqacha to'xtalib o'tdi.



Hozirgi kunda dunyodagi barcha sohani axborot texnologiyalarisiz tasvvur qilib bo'lmaydi. Jumladan aqilli qishloq xo'jaligi, aqilli shahar, jahon moliya institutlari, neft kompaniyalari, havfsiz shahar va hakozolarni ta'minlashda tezkor ma'lumotni analiz qilish talab etiladi. Buning uchun esa super serverlar bizga yordam beradi.

✘ Bunday Serverlar va ularning hususiyatlari haqida jumladan HUAWEI kompaniyasi tomonidan institutimizga joylashtirilgan serverga ma'lumotlar joylashtirish, favqulotda holatlar (elektr manbaida yoki internet tarmog'ida uzilishlar)da o'zida joriy turgan ma'lumotlarni avtomatik tarzda saqlab qolishi, aqilli funksiyalari va boshqa qulayliklari to'g'risida batafsil ma'lumot berib o'tildi.



Xalqaro hamkorlik bo'limi boshlig'i Sh.Raxmonov ma'lumoti

TIQXMMI matbuot xizmati